

## 7-SINF O'QUVCHILARIDA MAQOM IJROCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY TA'LIM TARAQQIYOT STRATEGIYASINING O'RNI

*Nazarova Dilnoza Eraliyevna*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori(PhD).*

*Kamilov Yahyobek Alisherovich*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
"Musiqqa ta'limi va san'at" yo'nalishi 1- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilarida maqom ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni hamda uning milliy ta'lim siyosati bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Xususan, maktab musiqqa ta'limida maqom san'atini o'qitishning pedagogik ahamiyati, o'quvchilarning estetik didi va musiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, maqom san'atini o'rganishning Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasidagi ta'lim islohotlari bilan uzviy bog'liqligi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Maqom, musiqqa ta'limi, umumta'lim maktablari, 7-sinf darslik, taraqqiyot strategiyasi, milliy meros, estetik tarbiya, ijrochilik, pedagogika.

## РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ РУКОВОДЯЩИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ 7-ГО КЛАССА

**Аннотация:** В данной статье анализируется процесс формирования исполнительских навыков макома у учащихся 7-х классов общеобразовательных школ и его связь с национальной образовательной политикой. В частности, освещается педагогическое значение обучения искусству маком в школьном музыкальном образовании, его роль в развитии эстетического вкуса и музыкального мышления учащихся. Также рассматривается неразрывная связь изучения искусства маком с образовательными реформами в рамках Стратегии развития Нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** Маком, музыкальное образование, средние школы, учебник для 7 класса, стратегия развития, национальное наследие, эстетическое образование, исполнительское искусство, педагогика.

## THE ROLE OF THE NATIONAL EDUCATIONAL DEVELOPMENT STRATEGY IN FORMING STATUS EXECUTIVE SKILLS IN 7TH GRADE STUDENTS

**Abstract:** This article analyzes the process of forming maqom performance skills in 7th-grade students of general education schools and its connection with national educational policy. In particular, the pedagogical significance of teaching the art of maqom in school music education, its role in the development of students' aesthetic taste and musical thinking are highlighted. Also considered is the inextricable link between the study of maqom art and educational reforms within the framework of the New Uzbekistan Development Strategy.

**Keywords:** Maqom, music education, secondary schools, 7th grade textbook, development strategy, national heritage, aesthetic education, performance, pedagogy.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, musiqa ta'limi orqali o'quvchilarda estetik didni shakllantirish va milliy musiqa merosiga hurmat uyg'otish muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, maqom san'ati yosh avlodni ma'naviy jihatdan boyitishda muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyo hududida shakllangan Shashmaqom tizimi milliy musiqiy madaniyatning eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur san'at turi o'quvchilarning musiqiy tafakkuri, ijodiy qobiliyati va estetik dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy ta'lim taraqqiyot strategiyasida musiqa ta'limining ahamiyati yosh avlodlar uchun keng ko'lamlı imkoniyatlar yaratilmoqda. Musiqa ta'limi milliy ta'lim strategiyasining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat o'quvchilarning estetik va ijodiy rivojlanishiga, balki ularning milliy madaniyatni tushunishiga ham xizmat qiladi. Yoshlar musiqa orqali o'z xalqining tarixiy-madaniy merosini o'rganadi va milliy o'zligini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, o'quvchilar o'zbek maqom san'ati va xalq kuylarini o'rganish orqali o'z milliy qadriyatlarini chuqurroq anglab yetadi. Shuningdek, musiqa ta'limi shaxsiy rivojlanishga ham katta hissa qo'shadi. Kuy, ritm va ohanglarni o'zlashtirish yoshlarning hissiy idrokini kuchaytiradi, ijodiy fikrlashini va estetik didini rivojlantiradi. Musiqa ta'limi boshqa fanlar, masalan, matematika (ritm va vaqt o'lchovlari), adabiyot (qo'shiq matnlari) va tarix (musiqa tarixi) bilan bog'lab o'qitilsa, bu o'quvchilarning bilish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi.

Musiqaning ijtimoiy va psixologik foydalari ham muhimdir. Guruh bo'lib ijro etish, xor va musiqiy dasturlarni sahnalashtirish yoshlarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, stressni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, milliy ta'lim strategiyasi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali musiqa ta'limini yanada

samarali qilish imkonini beradi. Masalan, onlayn platformalarda maqom yoki xalq kuylarini o'rganish imkoniyati yoshlar uchun qulay va interaktiv ta'lim muhitini yaratadi. Bundan tashqari, musiqa ta'limi nafaqat ijrochilik, balki kompozitsiya, pedagogika va musiqa nazariyasi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi. Bu esa ta'lim tizimining sifatini oshirish, milliy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz yoshlar uchun yangidan – yangi islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, umumta'lim maktablar uchun yangi o'quv darsliklar, yangi o'quv rejalar hamda zamonaviy texnologiyalar, darsdan tashqari o'quvchilarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida to'garaklar faoliyatini amalga oshirdilar. Shuningdek, umumta'lim maktablarida yangi musiqa o'quv darsliklarda o'zining milliy hamda zamonaviy o'quv darsliklar o'quvchining estetik didini, tafakkurini hamda o'zining milliy an'ana qo'shiq va kuylari musiqaga bo'lgan qiziqishini boyitib kelmoqda. Jumladan, 7-sinf o'quvchilarida maqom ijrochiligini shakllantirish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Bular:

1. Nazariy tushunchalarni shakllantirish-o'quvchilarga maqom san'atining kelib chiqishi, tuzilishi, lad va ritm xususiyatlari haqida umumiy tushunchalar beriladi.
2. Tinglash va tahlil qilish. Maqom namunalarini tinglash orqali o'quvchilar ohang va ritmni anglashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.
3. Amaliy ijrochilik faoliyati. Oddiy maqom kuylarini kuylash yoki cholg'u asboblarda ijro etish orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.
4. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish. O'quvchilarni musiqiy sahna chiqishlari, konsertlar va tanlovlarda ishtirok etishga jalb qilish ularning ijodiy faolligini oshiradi.

Maqom san'ati o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim rol o'ynaydi. U orqali o'quvchilarda: estetik did shakllanadi, milliy qadriyatlarga hurmat kuchayadi, musiqiy tafakkur rivojlanadi va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, maqom musiqasi o'quvchilarning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning sabr-toqat va diqqatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, 7-sinf o'quvchilarida maqom ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish musiqa ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarning estetik tarbiyasini rivojlantirish, milliy musiqa merosiga hurmatni kuchaytirish va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Milliy ta'lim strategiyasi doirasida musiqa ta'limini rivojlantirish, xususan, maqom san'atini o'qitish orqali yosh avlodni milliy madaniyat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rajabov I. **O'zbek maqomlari**. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
2. Matyoqubov O. **Maqomot**. – Toshkent.

3. <https://cyberleninka.ru/article/n/maqom-ta-limi-insoniyat-ma-naviy-madaniyatining-muhim-tarkibiy-qismi-sifatida>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqa-ta-limi-orqali-o-quvchilarda-milliy-ozlikni-shakllantirish>
5. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>